

MAQOLLARDAGI BADIY SAN'ATLAR VA ULARNING TAHLILI**Abdullayeva Nozima Anvarxonovna**

Farg‘ona Davlat Universiteti

Lingvistika (ingliz tili) yo‘nalishi magistranti

nozima.anvarxonovna@gmail.com**Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna, PhD**

Farg‘ona davlat universiteti Ingliz tili kafedrasi mudiri

ANNOTATSIYA

O‘zbek xalq maqollari ham nasriy ham turga mansub bo‘lgan har ikki turdag'i sifatlarni o‘zida namoyon etadi. Shuningdek, ikki turdag'i badiiy asarlarda keng qo‘llanadi. Ushbu maqolada maqollar ishtirokidagi hamda ularda mavjud bo‘lgan badiiy san’atlar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: *maqol, ilmi bade’, aqd, zarb, izdivoj, irsoli masal, istiora, kalomi jome’, mubolag‘a, mukarrar lafz, niqto, radif, ritorik savol, saj, tazod, talmeh, tashxis.*

ABSTRACT

Uzbek national proverbs have both prosaic and poetic features. So proverbs are widely used in prose and poetry. Literary devices which are used in proverbs and by means of proverbs are analyzed in the research paper.

Key words: *proverb, poetic arts, changing proverbs into poems, proverbs in fiction, proverbial examples in a poem, metaphor, wit, hyperbole, epizeuxis (ploce), anthropomorphism, identical rhyme, rhetorical question, end rhyme, antonymy, allusion, personification.*

KIRISH

Maqollar shu davrgacha turli usullar yordamida o‘rganib kelingan. Ular avvalo alfavit ko‘rinishda yoki mavzuga aloqador shaklda tartiblashtirilgan. X.Abdurahmonov, P.U. Bakirov, I.K. Mirzayev, A.Narziqulov, E.V. Ivanova, Z.A. Yusupova, N.E. Abdullayeva, A.D. Paizbekova kabi olimlar maqollarni turli usullar bilan o‘rganishgan. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedovlarning “Nega shunday deymiz: O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati”, “Hikmatnama”, B.Jorayevaning “O‘zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug‘ati”, M.Sodiqovaning “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha maqol-matallar lug‘ati”, o‘zbek tilshunos olimlaridan To‘ra Mirzayev, Asqar Musaqulov, Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan tuzilgan “O‘zbek xalq maqollari” ning G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti tomonidan qilingan nashrida o‘zbek xalq maqollari hamda ularning izohlari keltirilgan. Lekin ularning deyarli hech qaysi birida maqollarda uchraydigan badiiy san’atlar tahlil qilinmagan. Ko‘pincha ular adabiyotshunoslik emas tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Maqolada maqollarning xuddi shu o‘rganib chiqilmagan tomoni ya’ni maqollarning badiiy san’atlarda qanday xususiyatlarga egaligi va ularning tarkibida qanday san’atlar qo‘llanishi mumkinligini tahlil qilinadi.

Yoqubjon Is’hoqovning “So‘z san’ati so‘zligi”[1], N.Hotamov, B.Sarimsoqovning “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”[2] kitoblarida keltirilgan badiiy san’atlardan foydalanib “O‘zbek xalq maqollari”[3] hamda Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedovlarning “Hikmatnama”[4] kitobidan misollar o‘rganilib, maqollar badiiy san’atlarning ham lafziy ham ma’naviy turlariga mansub bo‘lishi tahlil qilib chiqildi

METODLAR

O‘zbek xalqiga mansub bo‘lgan maqollar adabiyotshunoslikning badiiy san’atlar yo‘nalishi bo‘yicha qiyosiy va tahliliy usul bilan o‘rganib chiqiladi.

Badiiy san’atlar ya’ni ilmi bade’ – (ar. yangi, ajoyib, nodir) fikrni ravon va nafis ifodalash yo‘llari va vositalari, badiiy san’atlar (uslublar, vositalar) ning turlari va xususiyatlari kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Ilmi bade’ni tashkil etgan san’atlar

ikki turga bo‘linadi: 1. Ma’naviy san’atlar – she’rning ma’no-mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan san’atlar. 2. Lafziy san’atlar- nutqni, she’rni bezash, turli stilistik figuralar, so‘z o‘yinlari hosil qilishmaqsadida ishlataladigan san’atlar.

Maqollar shaklan va mazmunan keng ko‘lamli bo‘lib, turli badiiy san’atlarni o‘z ichiga oladi. Y.Is’hoqov asosiy badiiy san’atlarni she’riy matn doirasida ko‘rib chiqqan, maqolada esa ularni faqat maqollarda uchraydigan turlari keltiriladi.

MUNOZARA VA NATIJALAR

Tahlil asosida maqollar ishtirokidagi va ularda uchraydigan badiiy san’atlar quyidagilardir:

Aqd- ham lafziy ham ma’naviy san’atga mansub bo‘lib nasrni nazmga aylantirish san’atidir. Bunda maqol va matallar faol ishtirok etib, she’riy asarda pand-nasixat va boshqa ma’nolarni ifodalashda qo‘llanadi. Bu san’at ko‘plab ijodkorlar asarlarida uchraydi. Alisher Navoiy, Erkin Vohidov she’riyatidan misol qilib olish mumkin. Masalan:

Ey ko‘ngul, ishq ichra yo‘q shohu-gadoga imtiyoz,
O‘t aro tengdur quruq yo o‘l yog‘ochning hirqati.

Ya’ni: To‘qayga o‘t tushsa, ho‘lu-quruq baravar kuyadi.

Erkin Vohidovning “O‘rtada begona yo‘q” she’rida:

Ko‘yida men tosh boshimni

Urmagan ostona yo‘q.

Elda bor shunday masal:

Jon chekmasang jonona yo‘q. [5]

Jon chekmasang jonona yo‘q maqoli Jondan kechmasang- jonona qayda, toqqa chiqmasang- do‘lona qayda?! shaklida bo‘lib, she’rning qofiyasiga moslashtirilgan.

Yoki “Senga baxtdan taxt tilarman” she’rida:

Ko‘p nasihat tinglab Erkin
 Qilmadi hech tarki ishq,
 Bor masalkim, ish yurishmas
 Sohibi gar bo‘lsa koj.

Ya’ni, ushbu maqol: dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham, qishi bitmas shaklida bo‘lib, shoir maqolni she’rga mos ravishda o‘zgartiradi.

Zarbulmasal – (ar. Zarb-urish, masal-maqol, matal) maqol va matallar vositasidan tarkib topgan asar. Gulxaniyning “Zarbulmasal”, Sulaymonqul Rojiyning (1870-1924, Qo‘qon) “Zarbulmasal” asarlari 400 dan ortiq maqollarni o‘z ichiga oladi. Gulxaniy asarida qushlar tilidan sanoqsiz maqol-matallar, hikmatli so‘zlar pand-nasixat tarzida aytildi.

Shuningdek, Nozil Xo‘jandiyning (XIX) zarbulmasal-ruboiysi mavjud. Maqol ruboiyning to‘rtinchi misrasida keltiriladi:

Oni bilib bu so‘z dedi ahli kamoli haqparast:

“Bolaga toki ish buyur, orqasidan o‘zung yugur”.

Ya’ni: Yosh bolaga ish buyurib, orqasidan o‘zing yugur.

Irsoli masal – she’riy baytda maqol-matallar keltirish san’ati bo‘lib, unga Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yughnakiyning “Hibat ul haqoyiq” asarlari misol bo‘ladi.

Oyog‘ingga tushar har lahza gisu,

Masaldurkim, charog‘ tubi qorong‘u.

Istiora – biror so‘zning o‘rniga boshqasini ishlatish yoki o‘xshatish san’ati bo‘lib, ochiq yoki yopiq shaklda bo‘lishi mumkin. Ochiq istiora: Qiz bola – palaxmon toshi, otilsa qaytib kelmas. Bu maqolda qiz bola palaxmon toshiga o‘xshatilyapti. O‘xshamish va o‘xshatilmish berilganligi uchun bu ochiq istioraga misol bo‘la oladi.

Kalomi jome’ – ma’naviy san’atlardan biri bo‘lib, ijtimoiy, ahloqiy masaladagi o‘git, hikmat, shikoyat, bilan bezalgan bayt. Aksariyat maqol va matallar shunday san’at asosiga qurilgan. Masalan: O‘zingni er bilsan, o‘zgani sher bil. Boshingga qilich kelsa ham to‘g‘ri so‘zla.

Mubolag‘a – og‘zaki adabiyotda keng tarqalgan poetik vositalardan biri bo‘lib, xalq og‘zaki ijodiga oid adabiyotlarda ko‘p uchraydi. Bu san’at orqali biron bir shaxs, mavjudot yoki voqe-a-hodisa xarakteri bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Masalan: Omadi kelsa

sichqon filni yengar. Kunning kuni bo‘lganda, cho‘rtan baliq terak boshida suzar. Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko‘r.

Mukarrar lafz –misrada bir xil so‘zlarning takrorlanib kelishi bo‘lib, baytda o‘ziga xos ma’no – mazmun yaratadi. Masalan: Ollo-ollo degan bilan osmondan chalpak yog‘ilmas. Birin-birin ming bo‘lar, toma-toma ko‘l bo‘lar.

Niqto – antromorfizm. Insonga xos bo‘lgan nutqiy jarayonni hayvon, o‘simglik yoki jonsiz tabiat namunalariga ko‘chishi. Masalan: Tuyadan: “Nega bo‘yning egri?” deb so‘rasalar, “Qayerim to‘g‘ri?” degan ekan.

Radif – (yonma-yon ketma-ket turgan ikki yoki undan ortiq narsa) she’riy misra oxirida qofiyadan keyin takrorlanadigan so‘z, so‘z birikmasi yoki yordamchi so‘zlar. Masalan: Asli dushman yon bermas, Yon qoziqdan son bermas. Yaxshi bilib so‘zlar, Yomon tilib so‘zlar. Birinchi maqolda yon-son qofiyadosh so‘zlaridan keyin takrorlanib kelayotgan bermas-bermas so‘zleri, ikkinchi maqolda bilib-tilib qofiyadosh so‘zlaridan keyin kelgan so‘zlar-so‘zlar so‘zleri radif vazifasini bajaryapti.

Ritorik savol – tilshunoslikda javob talab qilmaydigan so‘roq shaklidagi gaplar bo‘lsa, badiiy san’at sifatida tasvirga bo‘yoqdorlikni kuchaytirish uchun muallif tomonidan qo‘llangan javobi o‘zidan ma’lum bo‘lgan so‘roq gaplardir. Maqollarda bunday holatni uchratishimiz mumkin. Masalan: Jondan kechmasang – jonona qayda, toqqa chiqmasang do‘lona qayda?! Ya’ni hech bir rohatga harakatsiz erishib bo‘lmaydi.

Saj’ – badiiy san’atlardan biri bo‘lib, nasri musajja’, nazmi musajja’ ya’ni nasr yoki nazmdagi saj’ turlari bor. Saj’ dastlab xalq og‘zaki ijodida paydo bo‘lgan keyinchalik yozma adabiyotda keng qo‘llanildi. Doston, ertak, maqol, topishmoq janrlarida saj’ unumli ishlatiladi. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida, Abdulla Qodiriy ijodiy mahoratida saj’dan oqilona foydalanilganligi kuzatiladi. Masalan: Qodiriy: Zero, zamona – zo‘rniki, tomosha ko‘rnikidir. Echki ham o‘z oyog‘idan, qo‘y ham o‘z oyog‘idan osiladir.[6]

Tazod – ma’naviy san’atlardan biri bo‘lib asosan maqol va matallarda juda ko‘p qo‘llanadi. Masalan: A.Qahhor – Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz.

bermoq-olmoq, ko‘p – oz o‘zaro qarama –qarshi ma’noli so‘zlar. Bunday vaqtarda yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi. Yo‘g‘on-ingichka, cho‘ziladi – uziladi tazod san’ati asosida aytilgan maqoldir. Bu kabi maqol va matallarni son-sanoqsiz aytib o‘tish mumkin: Katta –topganini kiyadi, kichik-suyganini. Boriga rozi bo‘l, yo‘g‘iga sabr qil. Kelin bilan qaynana –o‘t bilan suv. O‘g‘ling ahmoq bo‘lsa ham kelining dono bo‘lsin.

Talmeh – alluziya, bu badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladigan san’atlardan biri bo‘lib, unda misra yoki baytda mashxur shaxs, joy, voqeaga doir so‘zlarni ishlatish orqali asarga qo‘srimcha ma’no, vazifa yuklashdir. Masalan: A.Qahhor hikoyalarida ishlatgan - Isoning alamini musodan oladi. Xotinning urug‘i Hirotdan kegan emas, maqol va matallari. Bundan tashqari Qimorboz boy berganda , Jamshidni yodlar, Boy bo‘lganda-qochishni. Uch kishi bir bo‘lsa, biri – Xizir. Sulaymon o‘ldi, devlar qutuldi. Bu kabi maqollarda aytilayotgan shaxs, joy, yoki voqeа –hodisa tagida katta bir ma’no yotadi. Sulaymon (a.s) payg‘ambarlik qilgan davrda u kishiga nafaqat insonlar balki hayvonot dunyosiyu-devlar ham bo‘ysunishgan. Sulaymon (a.s) dan keyin ular ozodlikka chiqadilar, hech qaysi shaxsga bo‘ysunmaydilar. Shuning uchun ushbu maqolda Sulaymon (a.s.) ning vafot etishi ularga erk bergen. Kundalik hayotda esa biron rahbar, boshqaruvchi shaxs, kattaroq odam kelmasa, davrada qatnashmasa, bemalolchilik bo‘lib, har kim xohlagan ishini qila olgan paytda shu ibora ishlatiladi.

Tashxis – hayvonot olami, o‘simliklar va jonsiz narsalarga inson his-tuyg‘u, kechinma, xarakterlarini o‘tkazib o‘xshatib tasvirlash bo‘lib, bu san’at maqollarda ham keng qo‘llaniladi. Masalan: A. Qodiriydagи forscha maqol: Hirs mullo meshavad az zarbi cho‘b ya’ni kaltakning zarbidan ayiq mulla bo‘lgan ekan degan ma’noni anglatib, yovvoyi hayvonni gapga kirmas odamni kaltaklasa, tavba qiladi degan ma’noda shaxsga xos sifatlayapti. Dardi yo‘q kesak, ishqi yo‘q eshak maqolida xis-tuyg‘usiz kishi haqida gapirilar ekan uy hayvoni bo‘lgan eshakni insonga qiyoslayapti. Abdulla Qahhor hikoyasida Otning o‘limi, itning bayrami maqoli orqali kimga to‘y bo‘lsa, kimga aza bo‘lishligini hayvonlar misolida aytgan. Lekin ot o‘lsa, itlar bayram

qilmaydi. Bu maqolda obro‘liroq odam vafot etsa, atrofidagi qulluq qilib yurganlar qutulib, xursandchilik qiladi, degan ma’noni bildiradi.

XULOSA

Maqollar ham nasriy ham nazmiy shaklga aloqador bo‘lganligi sababdan har ikki turga mansub xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Maqollar ishtirokidagi ilmi bade’, aqd, zarb, izdivoj, irsolı masal, istiora, kalomi jome’, mubolag‘a, mukarrar lafz, niqto, radif, ritorik savol, saj, tazod, talmeh, tashxis kabi badiiy san’atlar o‘rganilishi maqollarning tadqiq qilinishini yana yangi yo‘nalishini yaratadi. O‘zbek xalq maqollari mukammal o‘rganilish jarayonida bu kabi san’atlar aniqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Is’hoqov Y., “So‘z san’ati so‘zligi”.
2. Hotamov N., B.Sarimsoqov “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati, Toshkent, O‘qituvchi, 1979.
3. Mirzayev T., ”O‘zbek xalq maqollari”, Toshkent: 2003.
4. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov Sh., “Hikmatnoma”, Toshkent, 1990.
5. Vohidov E., “O‘zbegim”, Toshkent, Sharq, 2005y.
6. Abdullayeva,N., Mirzayeva,D. (2022). Abdulla Qahhor hikoyalarida maqol va matallarning qo‘llanishi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 11, 64-68.